yaga oid terminologik ma'noni yuzaga keltirishini ko'ramiz. Masalan: *shor* termini fors tilidan olingan bo'lib, *"duzli, duzı kóp"* degan ma'noni bildiradi [7;38-b.]. Bu termin, asosan, tuproq yoki suv tarkibida tuz miqdorining ortib ketganligini bildirish maqsadida qo'llaniladi: *shor suw, shor topıraq.*

Shorlanıw – tuproqda o'simliklarning shakllangan hayotiga putur yetkazadigan, umuman, hayot uchun ham zararli tuzlarning ko'p miqdorda to'planishi [8;54-b.].

Shuningdek, o'simlik nomlaridan *sora* nomi ham fors tilidan kirgan. Bu so'z fors tilida shuvra *shuvra "shor jer, izey jer"* degan ma'noni anglatadi [7;31-b.]. Hozirgi qoraqalpoq tilida "japıraqlarınıń ústi jıltıraq, astı kúl reń jabayı shóp" degan ma'noni bildiradi.

Qorǵanısh reń – hayvonlarning rangi, rangining o'zlari yashaydigan muhitning rangiga mos kelishi. Buning natijasida ular dushmanlariga ko'rinmay omon qoladi. Bu qo'shma termindagi mudofaa so'zi qadimgi turkiy tildan kirib kelgan. Rang so'zi esa tojik tilidan kirib kelib, *"boyaw"* degan ma'noni bildiradi.

Záhárli ósimlikler – turli organlardagi hayvonlarni zaharlab, hatto o'ldirib yuborishi mumkin bo'lgan zahari bor modda o'simliklar. Shunday zaharli o'simliklar bu orqali o'zlarini himoya qiladi. Bu qo'shma termindagi zahar so'zi tojik tilidan kirib kelib, *"júdá ashshı"* degan ma'noni bildiradi. O'simlik so'zi ham qadimgi turkiy tildan kirib kelib, *"egin, ot-shóp, terek"* degan ma'nolarni bildiradi.

Izeykesh atamasi fors tilidan olingan bo'lib, *zek "duz, duzlı"+kach "qarıq, tap"* izey suv oqadigan yoki saqlanadigan joy, drenaj [7;16-b.].

Puta nomi "buta" so'zidan olingan bo'lib, "túbinen shaqalap ósetuǵın mayda kelte terek" [7;29-b.] degan ma'noni anglatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qoraqalpoq ekologik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida arab va fors tillaridan o'zlashgan leksik birliklar muhim o'rin egallaydi. Ushbu o'zlashmalar tarixiy-madaniy va ilmiy aloqalar natijasida tilimiz lug'at tarkibiga kirib, ekologiyaga oid turli tushunchalarni ifodalashda faol qo'llanib kelmoqda.

Tahlillar jarayonida arab va fors tillaridan o'zlashgan ekologik terminlarning semantik hamda struktur xususiyatlari aniqlanib, ularning ayrimlari o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida ma'no jihatdan ixtisoslashgani kuzatildi. Mazkur birliklar o'zbek ekologik terminologiyasining boyishi va takomillashuvida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ularni etimologik va semantik jihatdan tadqiq etish ekologik terminlarni tartibga solish va unifikatsiyalash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, «Университет», 2003, 559-бет.

(2). Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы арабша сөзлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015

(3). Қурбанов М.Д. Қарақалпақ тилиндеги географиялық терминлердиң лексика-грамматикалық өзгешеликлери. Фил. канд. дис., Нөкис, 2011.

(4). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, «Университет», 2009,

(5). Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,

(6). Salimov X.V. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bo'yicha atama va tushunchalarning izohli lug'ati. Toshkent, 2009.

(7). Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы парсыша сөзлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2017.

(8). Қосанов О., Қосанов С. Экология терминдерінің түсіндірме сөздігі. Алматы, "Шартарап", 2000.

Xolmuradova Jamila Irmetovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.;
(jamilaxalmuratova66@gmail.com)

XORAZM DOSTONLARI TILIDA NUTQIY TA'SIRCHANLIKNING LINGVOPRAGMATIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm dostonlari tilidagi nutqiy vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda murojaat, duo, qarg'ish, buyruq, nasihat, dialog va monologlar, maqol-matal hamda idiomalarning kommunikativ va ta'sirchanlik funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, nutqiy birliklarning tinglovchiga ruhiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ta'siri hamda xalqning nutqiy madaniyati va kommunikativ tajribasini ifodalashdagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm dostonlari, lingvopragmatika, nutqiy vositalar, nutqiy ta'sir, kommunikativ qiymat, dialog, monolog, maqol-matal, idioma, murojaat, duo, qarg'ish.*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕЧЕВОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ЯЗЫКЕ ХОРЕЗМСКИХ ДАСТАНОВ

Аннотация. *В статье анализируются лингвопрагматические особенности речевых средств в языке хорезмских дастанов. Рассматриваются коммуникативные и экспрессивные функции обращений, молитв, проклятий, приказов, наставлений, диалогов и монологов, пословиц, поговорок и фразеологических единиц. Кроме того, раскрывается психологическое, социальное и воспитательное воздействие речевых единиц на слушателя, а также их роль в отражении речевой куль-туры и коммуникативного опыта народа.*

Ключевые слова: *хорезмские дастаны, лингвопрагматика, речевые средства, речевое воздействие, коммуникативная ценность, диалог, монолог, пословицы и поговорки, фразеологизмы, обращение, молитва, проклятие.*

LINGUAPRAGMATIC FOUNDATIONS OF SPEECH EXPRESSIVENESS IN THE LANGUAGE OF KHOREZM DASTANS

Annotation. *The article analyzes the linguapragmatic features of speech means in the language of Khorezm epics. It examines the communicative and expressive functions of addresses, prayers, curses, commands, advice, dialogues and monologues, proverbs, sayings, and phraseological units. The article also highlights the psychological, social, and educational impact of speech units on the listener, as well as their role in reflecting the speech culture and communicative experience of the people.*

Keywords: *Khorezm epics, linguapragmatics, speech means, speech impact, communicative value, dialogue, monologue, proverbs and sayings, phraseological units, address, prayer, curse.*

Kirish (Введение/Introduction). Xorazm dostonlari xalqning badiiy tafakkuri mahsuli sifatida nutqiy vositalarining eng yuksak shakllarini mujassamlashtiradi. Qahramonlarning so‘zlari, murojaatlari, duolari, qarg‘ishlari, buyruqlari va nasihatlari faqat sujetni rivojlantirish uchun emas, balki tinglovchiga ta’sir o‘tkazish, his-tuyg‘ularni uyg‘otish va maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun dostonlarni lingvopragmatik tahlil qilishda nutqiy vositalarning ta’sirchanlik funksiyasini alohida o‘rganish zarur. Dostonlarda qo‘llanadigan nutqiy vositalar tinglovchining ruhiyatiga bevosita ta’sir qiladi: ular g‘azabni kuchaytiradi, sadoqatni mustahkamlaydi, sevgi hissini kuchaytiradi yoki dushmanga nafrat uyg‘otadi. Shu bois dostonlar xalqning nafaqat estetik zavqini, balki psixologik tarbiyasini ham shakllantirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология/Materials and Methods). Roman Yakobson tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar badiiy matn lingvistikasi rivojida muhim o‘rin tutadi. Uning “Tilshunoslik va poetika” asarida tilning poetik funksiyasi asoslab beriladi. Tilning amaliy qo‘llanishi va kommunikativ vazifalarini tahlil qilish J.L.Austin va Jon Serl nomlari bilan bog‘liq. Austinning “So‘zlar yordamida ishlarni qanday bajarish” asarida nutq aktlari nazariyasi asoslab berilgan bo‘lsa, Serl “Nutq aktlari” tadqiqotida illokutiv va perlokutiv aktlar tasnifini ishlab chiqdi. Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda Klifford Ghirtzning “Madaniyatlar talqini” asari muhim manba hisoblanadi. Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan etnografik yondashuv esa nutq faoliyatini ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Teun van Dijk diskurs tahlili orqali matn va kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib bergan. Anna Verzbicka esa madaniyatga xos kalit so‘zlar orqali xalq dunyoqarashini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqdi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va tanlama usullaridan foydalanildi.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Xorazm dostonlarida qahramonlarning nutqiy vaziyatlari – *iltimos, duo, qarg‘ish, buyruq, murojaat* kabi birliklar kommunikativ niyatni ifodalovchi asosiy vositalardir. Dialoglar qahramonlarning o‘zaro munosabatini va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni ko‘rsatsa, monologlar ularning ichki dunyosini ochadi. Idioma va paremalar esa nutqiy vaziyatlarni umumlashtirib, xalqning ijtimoiy ongini va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Shunday qilib, dostonlarni lingvopragmatik jihatdan o‘rganish xalqning nutqiy madaniyati, muloqot tajribasi va ijtimoiy ongini anglashda muhim ilmiy vazifadir.

Nutqiy ta’sirning kuchi, avvalo, qo‘llangan so‘z va ifodalar tanlanishiga bog‘liq [1;45-b.]. Dostonlarda badiiy ta’sirchanlikni yuzaga keltiruvchi til vositalari qahramonlarning his-tuyg‘ularini, g‘oyaviy maqsadini va voqealarning emotsional mazmunini kuchli ifodalashga xizmat qiladi. Bunday vositalar orasida emotsional-ekspressiv leksika, paremiologik va frazeologik birliklar, takrorlar hamda qasam va duo shakllari alohida o‘rin tutadi.

Avvalo, emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan *jonim, el-yurt, or-nomus, vatan* kabi so‘zlar tinglovchi yoki o‘quvchining hissiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, matnning ta’sir kuchini oshiradi.

Shuningdek, maqol, matal va idiomalar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va donishmandligini o‘zida mujassam etgani sababli nutqning obrazliligi va ta’sirchanligini kuchaytiradi. Masalan, *“Er yigit so‘zida turar”, “Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo‘r yarar”* kabi paremalar qahramonlar fikrini lo‘nda va mazmunli ifodalashga xizmat qiladi.

Takror va parallel konstruksiyalar ham doston tilining muhim uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Muayyan so‘z yoki iboraning qayta-qayta qo‘llanishi tinglovchi e’tiborini asosiy g‘oyaga qaratadi va nutqning hissiy ta’sirini kuchaytiradi. Masalan, *Otlansin yigitlar, otlansin!* kabi takroriy birliklar shijoat va jo‘shqinlikni ifodalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qasam va duo shaklidagi nutqiy birliklar qahramonning qat’iyati, e’tiqodi va maqsadga sodiqligini ko‘rsatadi. *Jonimdan o‘tsam ham, orimdan o‘tmayman* kabi ifodalar qahramon xarakterining mustahkamligini namoyon etib, tinglovchida ruhiy ko‘tarinkilik va hayrat uyg‘otadi.

Dostonlar og‘zaki ijod namunasi sifatida, avvalo, bevosita tinglovchi auditoriyasiga yo‘naltirilgan badiiy-nutqiy tizim hisoblanadi. Shu bois ularda qo‘llanadigan til vositalari nafaqat voqealarni bayon qilish, balki tinglovchiga hissiy va ruhiy jihatdan ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. Nutqiy birliklarning bunday qo‘llanishi dostonlarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini belgilaydi.

Xususan, ruhiy ko‘tarinkilik va ruhlantirish funksiyasi qahramonlarning jasorat, vatanparvarlik va qat’iyatini ifodalovchi nutqlarida namoyon bo‘ladi. Jang oldidan aytilgan *Elim uchun jonim fido!* kabi murojaatlar tinglovchini mardlik va qahramonlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ogohlantirish va tarbiyaviy funksiya esa nasihat, hikmat va paremiologik birliklar orqali amalga oshadi. Bunday birliklar xalqning axloqiy mezonlarini ifodalab, jamiyat a’zolarini to‘g‘ri yo‘lga undaydi. Masalan, *Orsiz yashagan – odam emas* kabi maqollar orqali insoniy fazilatlarning ahamiyati ta’kidlanadi [2;12-b.].

Dostonlardagi hamdardlik uyg‘otish vazifasi qahramonlarning iztirobli monologlari va kechinmalarini ifodalovchi nutqiy shakllar orqali yuzaga keladi. Bunday ifodalar tinglovchida qahramon taqdiriga nisbatan achinish, hamdardlik va yaqinlik tuyg‘ularini paydo qiladi.

Nafrat va salbiy munosabat shakllantirish funksiyasi qarg‘ish, la’nat kabi nutqiy birliklarda namoyon bo‘ladi. Ushbu vositalar orqali dushman yoki salbiy obrazlarga nisbatan xalqning bahosi va munosabati ifodalanadi. *Nomusing kuysin, elingdan ayrilgin* kabi qarg‘ishlar ana shunday salbiy hissiy ta’sirni kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, doston tilida nutqiy vositalar tinglovchi qalbiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va uning ruhiy holatini boshqaradi. Dostonlarda nutqiy ta’sir, ko‘pincha, dialog va monologlarda yuzaga chiqadi. Dialoglarda ikki tomonning qarama-qarshi nutqi dramatik ta’sir uyg‘otadi. Masalan, qahramon va yov o‘rtasidagi bahsda biri adolatni, ikkinchisi zo‘ravonlikni ifodalaydi. Bu jarayon tinglovchini qaysi tomonni qo‘llab-quvvatlash kerakligini ko‘rsatib beradi. Monologlarda qahramon o‘z ruhiy iztirobini, umidini yoki qat’iyatini ifoda qiladi. Bu tinglovchiga bevosita emotsional ta’sir qiladi. Masalan, *Elim uchun o‘lsam arzimaydi* degan monolog tinglovchida vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Idiomalarda bu yanada kuchli ko‘rinadi. *Ko‘nglimdan qon oqadi* – g‘am va iztirob. *O‘zingni er bilsang, birovni sher bil, Qaytgan xotin, toygan to‘qol, Qochgan yovda qoruv yo‘q* [3;32–33-b.].

Dostonlar tilida maqol va matallar nutqiy ta’sirni kuchaytiruvchi asosiy vositadir. Ular qisqa, lo‘nda va xalqona bo‘lgani uchun tinglovchiga tez yetib boradi. Qahramonlar o‘z nutqi orqali nafaqat his-tuyg‘ularni ifodalaydi, balki muayyan maqsadga erishishga ham intiladi. Jang oldidan nutqda askarlarni jangga tayyorlash va ruhlantirish kiritiladi. Sevgi izhori sevgilining sadoqatini mustahkamlashga xizmat qilsa, ota-ona nasihati farzandni axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Xonning farmoni jamiyatni boshqarish va tartibni ta’minlashga va nutqiy vositalar maqsadga erishishda asosiy qurol sifatida xizmat qiladi.

Natijalar (Результаты/Results). Dostonlar tilida nutqiy vositalarning ta’sirchanlik xususiyatlarini tadqiq etish til birliklarining nafaqat mazmuniy, balki pragmatik, ijtimoiy va madaniy imkoniyatlarini ochib berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala bir necha ilmiy yo‘nalishlar asosida izohlanadi:

Nutqiy vositalarni o‘rganish orqali so‘z va iboralarning tinglovchiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi o‘rni hamda nutq jarayonidagi vazifasi aniqlanishi lingvopragmatik jihat hisoblanadi.

Sotsiologik yondashuv asosida, qahramonlar nutqining ularning jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy roli va o‘zaro munosabatlariga mosligi tahlil qilinadi. Bu orqali dostonlardagi ijtimoiy munosabatlarning til vositasida ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi [4;79-b.].

Adabiy-badiiy jihatdan yondashish esa, nutqiy ta'sirchanlik vositalarini tahlil qilish dostonlarning obraz yaratish imkoniyatlarini, badiiy kuchi va estetik ta'sirini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xorazm dostonlarida nutqiy vositalar faqat badiiy bezak emas, balki ta'sirchanlik kuchga ega kommunikativ vositadir. Ular tinglovchining his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, uni ruhlantiradi, ogohlantiradi, hamdardlik yoki nafrat uyg'otadi. Dialog va monologlar orqali qahramonlarning ruhiy holati va maqsadlari ochiladi, idioma va paremalar esa ta'sirchanlikni kuchaytiradi [5;12-b.]. Shunday qilib, dostonlarda nutqiy vositalarning ta'sirchanlik funksiyasini o'rganish xalqning nutqiy madaniyatini, ijtimoiy ongini va kommunikativ tajribasini chuqur anglash uchun muhim ilmiy vazifadir. Xalq dostonlari asrlar davomida o'zbek og'zaki ijodining yirik janri sifatida shakllangan bo'lib, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki xalqning ijtimoiy ongini, ma'naviy qadriyatlarini, kommunikativ tajribasini ham saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, doston tilini faqat poetik tahlil doirasida o'rganish yetarli emas. Chunki unda mavjud bo'lgan nutqiy birliklar – murojaat, duo, qarg'ish, buyruq, maqol, matal va idiomalar tinglovchi bilan bevosita aloqaga kirishib, kommunikativ qimmat kasb etadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xalq dostonlari asrlar davomida o'zbek og'zaki ijodining yirik janri sifatida shakllangan bo'lib, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki xalqning ijtimoiy ongini, ma'naviy qadriyatlarini, kommunikativ tajribasini ham saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, doston tilini faqat poetik tahlil doirasida o'rganish yetarli emas. Chunki unda mavjud bo'lgan nutqiy birliklar – murojaat, duo, qarg'ish, buyruq, maqol, matal va idiomalar tinglovchi bilan bevosita aloqaga kirishib, kommunikativ qimmat kasb etadi. Pragmatik tahlil doston tilini qahramonlarning ruhiy holati, niyati va ijtimoiy maqomi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib, undagi har bir nutqiy birlikning tinglovchi yoki voqea rivojiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganadi.

Pragmatik tahlilda doston tilining nafaqat poetik, balki kommunikativ qimmatini ham ochib beradi. Qahramonlarning nutqiy vaziyatlari, dialog va monologlari, maqol-matal va idiomalari faqat estetik go'zallik uchun emas, balki tinglovchiga ta'sir o'tkazish, uni ruhlantirish, ogohlantirish va ma'lum maqsadga yetaklash uchun xizmat qiladi. Shunday qilib, dostonlar pragmatik jihatdan ikki tomonlama qimmatga ega – poetik qiymat – obrazlilik, badiiylik va estetik zavqni anglatsa, kommunikativ qiymat – ijtimoiy ongni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va tinglovchiga bevosita ta'sir qilishga xizmat qiladi [6;92-b.].

Demak, dostonlarni pragmatik tahlil qilish xalqning tarixiy muloqot tajribasi va nutqiy madaniyatini ilmiy asosda yoritish uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. ДДА, Т., 2000, 44-бет.

(2). Кунтуғмиш достони. Халқ оғзаки ижоди. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 250-бет.

(3). Баженова И.С. Эмоции, прагматика, текст. М., издательство "Менеджер", 2003, с. 56.

(4). Yaqubova Y.A. O'zbek tilida nutqiy ta'sir aktlarining ifodalanishi. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis., Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2026, 140-bet.

(5). Safarov Shahriyor. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.

(6). Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent, 2020, 168-bet.

Boltaeva Dilfuzaxon Shuxrat qizi (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "Ingliz tili nazariy aspektlari 1" kafedrasi katta o'qituvchisi; e-mail: dilfuzaboltayeva92@gmail.com)

NOVELLANING DAVRIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: FOLKLORIDAN KLASSIKAGACHA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada novella janrining folklor manbalaridan klassik adabiyotgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodi, xususan, afsona, rivoyat, ertak va latifalarning novellaning shakllanishi hamda mustaqil janr sifatida qaror topishidagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, qiyosiy-adabiy va narratologik metodlar qo'llanildi. Natijada novellaning evolyutsiyasi uch bosqichli model (folklor, yozma-adabiy va klassik rivojlanish bosqichlari) asosida tizimlashtirildi, "eshitilmagan voqea" tamoyili va "novellistik burilish"ning kompozitsion ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot janr nazariyasini boyitadi va adabiyot nazariyasi kurslarida qo'llanishi mumkin. Shuningdek, Y.M.Meletinskiy nazariyasi asosida novella tipologiyasining yangi talqini taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *novella, janr evolyutsiyasi, folklor, xalq og'zaki ijodi, hikoyachilik an'analari, Uyg'onish davri, klassik realizm, narratologiya, qisqa nasr, adabiyotshunoslik.*